**2024 yil davomida "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**

# HISOBOT

| T/r | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|
| 1. | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024 yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | "Davlat belgisi" DUKning monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom 12.12.2023 yilda tasdiqlangan. |
| 2. | Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplayens bo'linmasi (ma'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi. | Korxonaning 2023 yil 14 sentabrdagi 143-DB-sonli buyrug'iga asosan Ichki audit xizmati Komlayens-nazorat bo'yicha bosh mutaxassis Batirov Toxir Xurramovichga yuklatilgan. |
| 3. | Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalarining tashkil etilganligi. | "Davlat belgisi" DUKning rasmiy veb-saytida "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi" alohida xavolasini yaratilgan.<br>- mazkur sohaga oid murojaatlarni qabul qilish maqsadida<br>-elektron pochta:<br>komplayens@davlatbelgisi.uz;<br>-Ishonch telefoni:<br>(88) 148-14-22, ichki raqam: 11-11;<br>-telegramm bot: @davlat_belgisi;<br>aloqa kanallarini joylashtirildi. |
| 4. | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi. | "Davlat belgisi" DUKda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlarini oldini olish doimiy nazoratga olingan. |
| 5. | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi. | "Davlat belgisi" DUKda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmagan. |
| 6. | Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi. | "Davlat belgisi" DUKda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar mavjud emas. |
| 7. | Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari o'rgaliganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari | "Davlat belgisi" DUK faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ko'rib chiqilganda, raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlanmagan. |

| | | |
|---|---|---|
| | talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi. | |
| 8. | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tadbiq etilganligi. | “Davlat belgisi” DUKda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmagan. |
| 9. | Tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilganligi. | “Davlat belgisi” DUK xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirish maqsadida 2024 yil 30 mayda hamda 2024 yil 14 dekabrda o‘quv seminarlari o‘tkazilgan. |
| 10. | Tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o‘tkazilganligi. | Korxona xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida, 2025 yil 1-yarim yillikda test sinovlarini o‘tkazilishi rejalashtirilgan. |
| 11. | Tashkilot rahbari, ularning o‘rinbosarlari va mas’ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi kompalayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar. | Korxona tomonidan monopoliyaga qarshi kompalayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar 2025 yil 2-yarim yilda rejalashtirilgan. |

Ichki audit xizmati Komplayens-nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis — T.X.Batirov

“Tasdiqlayman”
“Davlat belgisi” DUK
Bosh direktori
________ A.X.Xamidov
«24» 12 2024 y.

**“Davlat belgisi” DUK tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2025 yilga mo‘ljallangan**
**“YO‘L XARITASI”**

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari | Muddat | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish | Tizimli ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.<br>Korxonada raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish. | Doimiy<br>Doimiy | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi T.X.Botirov<br>Korxona tarkibiy bo‘linmalari raxbarlari |
| 2. | Korxona xodimlari orasida “Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish” mavzusida seminarlar va muloqotlar o‘tkazish | Korxona xodimlari orasida raqobat qonunchiligi va uning buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar to‘g‘risida seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish.<br>Faoliyat davomida xodimlarga muntazam ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berib borish. | Bir yilda 2 marta<br>Doimiy | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha T.X.Botirov<br>Personal bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i |
| 3. | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash | Oxirgi 3 yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o‘rganish.<br>Korxona o‘z ustun mavqeini suiste’mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish.<br>O‘tkazilgan o‘rganishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni xavflar | 2025 yil dekabr oyiga qadar<br>2025 yilning iyul-dekabr oylarida | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha T.X.Botirov |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari | Muddat | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | tasnifi asosida taqsimlash hamda bu yuzasidan monopoliyaga qarshi organga axborot kiritish. | 2025 yilning iyul-dekabr oylarida | |
| 4. | Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularning oldini olish | Faoliyatga tegishli **materiallarni tahlil qilish** (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazish), aniqlangan **kamchiliklarni bartaraf** etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqish.<br>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish.<br>Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan **omillarni aniqlash** va ularni bartaraf etish bo'yicha **takliflar** ishlab chiqish.<br>Korxona tomonidan **tanlov (tender)** o'tkazilishida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.<br>Korxona va yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan **shartnomalarni o'rganib borish**. Bunda:<br>- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining;<br>- til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.<br>- korxona tomonidan sotiladigan, ular bo'yicha ushbu subyektning ustun mavqei e'tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopol yuqori va monopol past narxlar o'rnatilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish. | Doimiy | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha T.X.Botirov<br>Korxona tarkibiy bo'linmalari |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari | Muddat | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | **Iqtisodiy konsentratsiyaga** oid tuziladigan **bitimlarni** nazorat qilish. Bunda:<br>**Insofsiz raqobat** holatlariga yo'l qo'ymaslik. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlariga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.<br>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish havfi yuqori bo'lgan korxona tarkibiy tuzilmalar ro'yxatini shakllantirish hamda doimiy nazorat qilib borish. | | |
| 5. | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash | 1. Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha hisobot tayyorlash:<br>-raqobat to'g'risidagi qonun buzilishi xavfini baholash natijalari to'g'risida;<br>-raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to'g'risida;<br>-monopoliyaga qarshi komplayensning asosiy ko'rsatkichlariga erishish to'g'risida;<br>-monopoliyaga qarshi komplayens faoliyatining samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash to'g'risida.<br>2. Monopoliyaga qarshi komplayens to'g'risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va monopoliyaga qarshi organga yuborish. | 2025 yil 15 dekabrga qadar<br><br>2025 yil 25 dekabrga qadar | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha T.X.Botirov |

| T/r | Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari | Muddat | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 6. | Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashinuvini amalga oshirish | Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy veb-sayt orqali yangi loyiha va takliflar bo'yicha axborot almashish. | Doimiy | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha T.X.Botirov<br>Elektronika va axborot-texnologiyalari bo'limi |
| 7. | Keyingi 2025 yilga mo'ljallangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xarita"sini tasdiqlash | Bir yilga mo'ljallangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xarita"sini monopoliyaga qarshi organ bilan kelishgan holda ishlab chiqib tasdiqlash. | 2025 yil 25 dekabrga qadar | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha T.X.Botirov |
| 8. | Korxona xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazish. | Xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash yuzasidan test savollarini ishlab chiqish hamda test sinovlarini o'tkazish. | 2025 yil yanvar-iyun oylarida | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha T.X.Botirov |
| 9. | Korxona rahbari, o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi kompalayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlarni tashkillashtirish. | Korxona tomonidan monopoliyaga qarshi kompalayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlarni tashkillashtirish. | 2025 yil iyul-dekabr oylarida | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha T.X.Botirov |

Kelishildi:

Bosh direktor o'rinbosari I.K.Anarboyev

Ishlab chiqdi:

Ichki audit xizmati komplayens-nazorat bo'yicha bosh mutaxassisi T.X.Batirov